

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
KENGASHINING 5–SONLI MAJLISI BAYONNOMASIDAN
KO‘CHIRMA

Chirchiq sh.

2025 y. 29.10.

Raislik qiluvchi: G.I.Muxamedov - rektor

Qatnashdilar: Universitet Kengashi a’zolari - 32 kishi

Kun tartibi:

7.6. Chirchiq davlat pedagogika universitetida Barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) 2025-yil uchun amalga oshirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida.

Eshitildi: G.I. Muxamedov – universitet rektori.

Ma’ruzachi professor G.I. Muxamedov Chirchiq davlat pedagogika universitetida 2025 yil davomida Barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlar tashkil etilganligini ta’kidladi. Ushbu faoliyat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF–5847-son Farmoni, “Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” hamda QS, THE va UI GreenMetric reytinglari talablariga muvofiq yo‘lga qo‘yildi.

Jumladan, universitetda BRM ko‘rsatkichlarini yangilash, “Sustainability Strategic Plan 2025–2030” doirasida ishlarni muvofiqlashtirish va UI GreenMetric hisobotlarini takomillashtirish bo‘yicha aniq natijalarga erishildi. Ta’lim, ilmiy tadqiqot, infratuzilma va hamkorlik yo‘nalishlari bo‘yicha ishlar quyidagicha tashkil etildi:

1. Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha – BRM tamoyillarini o‘quv dasturlariga integratsiya qilish, talabalarda ekologik madaniyat va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish maqsadida maxsus modullar va treninglar joriy etildi.

2. Ilmiy tadqiqotlar sohasida – barqaror rivojlanish, ekologik pedagogika, ta’lim klasterlari va yashil innovatsiyalar bo‘yicha 30 dan ortiq ilmiy maqolalar va 10 ga yaqin monografiya nashr etildi.

3. Infratuzilma va ekologik islohotlar bo‘yicha – universitet kampusida chiqindilarni saralash tizimi yo‘lga qo‘yildi, energiya tejamkor yoritish tizimlari joriy etildi, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay muhit yaratildi.

4. UI GreenMetric hisobotlari bo‘yicha – 2025 yilda universitetning SI, EC, WS, TR va ED bo‘limlaridagi natijalari 2024 yilga nisbatan yaxshilandi. Barcha ma’lumotlar elektron formatda to‘planib, ilmiy asosda taqdim etildi.

5. Hamkorlik va talabalar faoliyati bo'yicha – xalqaro universitetlar bilan hamkorlik kengaytirilib, BRM bo'yicha talabalarning "SDG Ambassadors Club" tashabbusi yo'lga qo'yildi.

Ma'ruzachi kelgusida BRM ko'rsatkichlarini yanada takomillashtirish va kampusda barqarorlik madaniyatini chuqurlashtirish uchun yangi tashabbuslar amalga oshirilishini ta'kidladi.

QAROR QILINDI:

1. Universitetda 2025 yil davomida amalga oshirilgan Barqaror rivojlanish maqsadlariga oid ishlar ijobiy deb hisoblansin.

2. Barqaror rivojlanish bo'yicha ishchi guruh 2026 yil uchun BRM indikatorlarini yanada takomillashtirish va UI GreenMetric hisobotlarini yangilash bo'yicha aniq reja ishlab chiqsin.

3. Ta'lim, ilmiy tadqiqot, infratuzilma va hamkorlik yo'nalishlarida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha yillik hisobot Kengash muhokamasiga kiritilsin.

4. Ishchi guruh faoliyati ustidan umumiy nazorat shaxsan o'z zimnamda qoldiraman.

Kengash raisi:

G.I. Muxamedov

Kengash kotibi:

F.A. Do'smanov

